

OILADA O‘SMIRLARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Ashurova Shaxnoza Faxriddinovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi

E-mail: Ashurovashaxnoza@mail.com

Karimova Muxayyo Nazar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi

E-mail: karimovamuhayyo1991@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Oilada o‘smirlarning sog‘lom turmush tarziga munosabat shakllanishining pedagogik-psixologik omillari to‘grisida yoritilgan bo‘lib yoshlarni sog‘lom turmush tarzi haqida tushunchalarini rivojlantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Oila, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy tasavvur, oilaviy muhit, sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha tasavvurlar.

Darhaqiqat, oila - har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istiklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o‘zbek xalqining qadriyatları va ma’naviy merosi ravnag‘ini ta’minlovchi tarbiya maskanidir. "Halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan". Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o‘zaro munosabatlari majmui bo‘lib hisoblanadi. "Oila haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo ko‘z o‘ngimizda ona siymosi shakllanadi. Oila muqaddasligini ta’minlovchi birinchi omil - ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehr-u muruvvati, sadoqati va vafodorligidir". Ota-onalar munosabatlarda namoyon bo‘luvchi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy toifadagi qadriyatlar ularning o‘zaro munosabatlarida uyg‘unlasha borib, oilada o‘zaro munosabatlar maromini vujudga keltiradi. Oiladagi ushbu ijtimoiy jarayon yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy turmush haqidagi tasavvurlari, nuqtai nazarları, tushunchaları, dunyoqarashları va sharqona odob-axloq qoidalari va ularga amaliyotda rioya etishning to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi. Yosh avlodning ma’naviy qiyofasi, ularning xatti- harakati,

xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi).

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asori-atiqalarda, muqaddas diniy manbalarda, o'zbek xalqining og'zaki ijodi durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan odob-axloq qoidalari, me'yorlari, insoniy fazilatlar ifodasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Manbalarda oilasiz insoniy hayotni tasavvur qilib bo'lmashlik, barkamol farzand tarbiyasi, undagi er - xotin va o'zaro munosabatlar madaniyati, baxtli va farovon turmush kechirish yo'llari, hayotiy misollar yordami bilan hikmatlar va nasihatlar ko'rinishida bayon etilgan.

Bugungi kunda Respublikamizda oila turmush tarzini o'rganish, oilada sog'lom turmush tarzini yaratish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifa va muammolar oilaning sog'lom bo'lishi, ma'naviy va modiy farovonligini oshirishi, farzandlar tarbiyasining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Sababi, faol yaratuvchanlikka asoslangan turmush tarzi jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy faollilik, oliy darajadagi fuqarolik sifati, aqliy, ma'naviy va jismonan sog'lom, mehnatda, o'zaro munosabatda, muloqotda yuksak madaniyatlilik, salbiy hodisalarga murosasizlik bilan qarash, ularga qarshi kurashish, tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish, atrofdagilarga mehr-oqibatda bo'lish kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Darhaqiqat, oilada turmush tarzini sog'lomligi kishilarni jamiyatda egallab turgan ijtimoiy mavqelarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. chunki turmush tarzi kishilarning ma'naviy dunyosi bilan ham uzviy bog'liqdir va ularning fikrlash tuyg'usi borasida ham muhim o'rin tutadi.

Sog'lom turmush tarzini falsafiy-ma'naviy, psixologik mezonlarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

- oilada, ta'lim maskanlari va jamoat joylarida yosh qizlar va ayollarning kiyinishlariga alohida e'tiborni qaratish;
- oilada va jamoat joylarida yoshlarning muomala madaniyatini shakllantirishda sog'lom turmush borasidagi xalqimizning o'ziga xos an'analarini va qadriyatlarini, otalar va momolar o'gitlarini alohida sog'lom ma'naviyatli oilalar tajribasini ibrat omili sifatida keng targ'ib etish;
- yoshlarni sportga, jumladan, oilaviy sportga ijobiy munosabatini shakllantirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar, oilaviy sportchilar an'analaridan foydalanish;
- oila a'zolarida, birinchi navbatda yoshlar orasida hayot mohiyatini anglash, umr qadriyatini e'zozlash, hayotiy faoliyatni oqilona tashkil etish madaniyatini shakllantirish;

- islom falsafasidagi orastalik va ozodalik tamoyillarini omma orasida targ‘ib etish orqali suv, havo, yer va suv qadriyatları borasida ijtimoiy fikrni shakllantirish. Umuman, salomatlik falsafasining shaklanishi sog‘lom va xalqchil marosimlar, urfatodatlar va milliy doimiy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq.

Ana shunday xalqaro ahamiyatga molik tadbirlarning kun tartibida turishi oila hayoti, undagi shaxslararo munosabatlar mustahkamligi va uning farovonligi kabi masalalar ijtimoiy psixologiyaning asosiy kategoriyasi va shaxslararo munosabatning asosi sifatida nihoyatda dolzarb muammo ekanligidan dalolat beradi.

"Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi". Ko‘rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirgi davr fani tadqiqot yo‘nalishining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Respublikamizda "Oila" ilmiy- amaliy markazining tashkil etilishi hamda hukumat tomonidan "Oila kodeksi" (1998) qabul qilinishi bugungi kunda oilalarning mustahkam va barqarorligini saqlash uchun qilinayotgan muhim amaliy ishlardan hisoblanadi.

Afsuski, oila-nikoh munosabatlarining hozirgi davrga kelib zaiflashib borayotganligi dunyoning deyarli ko‘pchilik mamlakatlarida: Amerika Qo‘shma shtatlari, Angliya, Frantsiya, Germaniya, Boltiq bo‘yi davlatlari, Rossiya va boshqa qator davlatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda o‘zbek oilalari hayotida oila-nikoh munosabatlarining zaiflashuvi va uning buzilishlari yuqorida qayd etilgan davlatlardagiga qaraganda anha kam bo‘lsa-da, afsuski ajralishning asoratlari oila azolari va qarindosh- urug‘lar o‘rtasida nihoyatda ayanhli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmoxda. Demak, oilalarning buzilishi va uning oqibatida yuzaga keladigan turli xildagi asoratlар ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya fanlarining tadqiqot predmeti sifatida keng o‘rganishni taqozo etadi.

Yoshlarimizda bu masala bo‘yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90-100 yillar oldingi ularning tengdoshlari, ya’ni o‘tib borayotgan asrimiz boshidagi va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o‘rtasidagi tafovutlarni solishtirib o‘tamiz.

Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so‘nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko‘ra ularning jinsiy, fiziologik balog‘atga yetishi 2-3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilha oldin yoshlarning jinsiy balog‘atga yetish davri 15-16 yoshga to‘g‘ri kelgan, hozir esa bu holat o‘rtacha 12-13 yoshlarga to‘g‘ri keladi. Endi shu yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

11 yillik barcha uchun majburiy ta’limdan so‘ng yoshlarimizning ma’lum bir qismi o‘qishni oliy o‘quv yurtlarida davom ettiradi. Bundan ko‘rinib turibdi-ki,

yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma'lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to'g'ri keladi. Bundan tashqari odamlarning turmush tarzi rivojlanishi bilan birga oilalarining kundalik hayoti o'zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga, moddiy farovonlik darajasiga bo'lgan ehtiyoji ham ortib boradi.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shaxsni madaniy takomillashuviga, u esa shaxslarni bir-birlariga qo'yadigan talablari ortishiga, va shaxslararo munosabatni noziklashuviga olib keladi. Fikrimizning dalili sifatida bir faktni keltirishimiz mumkin. Ajralish foyizi oliy ma'lumotlilar ichida umumiyligi o'rta ma'lumotlilarga nisbatan yuqoriroqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuqori saviyada bo'lмаган jamiyatdagi oila a'zolari o'zlarining oilaviy yumushlarining aksariyatini qo'lda bajaradilar. Unga oilaning barcha a'zolari va birinchi navbatda farzandlar mumkin qadar ko'p jalb qilinadi. Oila ishlarini bajarishdagi umumiyligi faoliyat yoshlarda ma'lum malakalarni, shu jumladan oiladagi tegishli rollarni bajarishni, oilada bir -birlari bilan qanday muloqotda bo'lish malakalarini, oilada har bir shaxsning ierarxik mavqeiga ko'ra o'z huquq va va-zifalarini aniqlab olishiga imkon beradi.

Bugungi yoshlarimiz esa yuqorida bayon etilganidek, 12-13 yoshlarida jinsiy balog'atga yetadilar va aksariyat hollarda oradan 7-8 yil o'tgandan so'ng, ya'ni qizlar 19-20 yoshda, yigitlar esa 21-22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtda esa ular na iqtisodiy jihatdan, na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor bo'lmaydilar. Bunday holatlar shubhasiz, ularning oilaviy hayotlarida oldingi tengdoshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy funktsiyalarini ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasini eng dolzarb masalalardan biri bo'lishini taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham so'nggi 15-20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarda, bizning respublikamizda esa mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq, oila masalalariga, yoshlarii oilaviy hayotga tayyorlash masalalariga. oilalarda komil shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda Umuman insoniyat jamiyatini tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor ham kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi. chunki oila jamiyatning kichik bir ko'rinishi bo'lib, u qancha inoq, ahil va mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo'ladi. Mana «Oila psixologiyasi» kursini yoshlarga o'qitishning dolzarbligini ifodalovchi asosiy omil.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o'rni beqiyosdir. chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, butun organizm o'z faoliyatini

maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir hujayraning munosib o‘rni bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib shaxs sifatida shakllanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta’min-lovhi, hal qiluvhi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir.

XULOSA

jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiga olmasligi, uning taraqqiyotiga to‘sinqlik qiluvchi, uning inqiroziga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. chunki nosog‘lom, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi, jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyan yetkazishi bilan birga, bunday nosog‘lom psixologik muhitda, nizo-janjalli, o‘zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelgan, shakllangan bola ham keyinchalik nafaqat o‘z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa o‘zi yashagan jamiyatda nisbatan mehr-oqibatsiz, shafqatsiz, zolim, xudbin, jamiyat, yurt manfaatlariga zid har xil salbiy tashqi kuchlar ta’siriga oson beriluvchan shaxs bo‘lib shakllanishi, shu asosda esa o‘z oilasi, o‘z xalqi, o‘z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 81-sod 01.03.2022- yildagi “Oila va xotin qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylar ni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
3. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi:Darslik-T.:”Sharq”, 2014.272-bet.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi:Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. –T.:”Fan va texnologiya”, 2008.152-bet
5. Ahmedov B. T. (2022). Muhabbat hislari bosqichlarining jinsga bog‘liq xususiyatlari. o‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(10).
6. Akhmedov B. (2022). Psychological characteristics of feelings of love. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6).
7. Karimova M. O‘smir yoshidagi qizlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari psixologik muammo sifatida. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2022

8. Karimova M. O'smir yoshidagi qizlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini oila mustahkamligiga ta'siri muammosining nazariy tahlili МИРЗО УЛУФБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2022
9. Karimova M. Psychological Basic Of Preparing Girls For Family Life In Uzbek Families Journal of Positive School Psychology, 2022, Scopus.
10. Ashurova. Sh. F. (2022) BOLALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'RNI "Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali"
11. Ashurova Sh. F. SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI "Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari. 2023.
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746>
12. Ashurova. Sh. F. "A healthy Lifestyle in Uzbekistan families from the point of view of islm religion" Emergent: Journal of education discoveries and lifelong learning (EJEDL) 2022-yil 56 b
13. M.B.Imonova - Характер акцентуациясининг деструктив хулқ шакланишига оиланинг таъсири. *Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio* № 6/7- 2022 ISSN 2181-7138
14. M.B.Imonova – Суицидиял хулқ-атвор характер акцентуацияси муаммоси сифатида. Международный научный журнал "Научный импульс" № 4 ноябрь 2022 й.
- M.B.Imonova "Oila tinchligi – jamiyat faravonligi asosi" Finland academic research science publisher 2023, 1148-1151 b